

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2019 yil yanvar – dekabr, dastlabki ma'lumot)

2019 yil yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2324,5** ming so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan **27,5 %** ga oshdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan asosiy mehnat ko'rsatkichlarining o'zgarishi


(2019 yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



Ma'lumot uchun: O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tarkibiga ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlarining respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan o'zgarishi, %


(2019 yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichidan sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish faoliyati – 34 % ga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 24,6 % ga, ta'lim sohasi - 20,8 % ga sezilarli darajada past bo'ldi. Shu bilan birga bank, sug'urta, lizing va kredit - vositachilik faoliyati - 106,4 % ga, axborot va aloqa sohasi - 70,9 % ga respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan sezilarli darajada yuqoriligi kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm

(2019 yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyatning barcha turlarida 2018 yilning mos davriga nisbatan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sishi kuzatildi. Ayniqsa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - **40,1 %** ga, bank, sug'urta, lizing va kredit-vositachilik faoliyatida - **37,2 %** ga, ta'lim sohasida - **33,3 %** ga sezilarli o'sish kuzatildi.

2019 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha respublikadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichli hududlar

(respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichga nisbatan, %)

	Jami	shu jumladan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:								
		sanoat	qurilish	savdo	tashish va saqlash	axborot va aloqa	bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	ta'lim	sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	boshqa faoliyat turlari
O'zbekiston Respublikasi	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Qoraqalpog'iston Respublikasi										
Andijon					-58,5					-17,4
Buxoro			-34,6	-22,3						-18,9
Jizzax		-36,4	-28,2		-49,2	-49,1				
Qashqadaryo								-9,5	-19,0	
Navoiy										
Namangan	-19,3	-40,6		-19,8						
Samarqand				-30,5	-49,1	-51,7				-17,5
Surxondaryo	-19,3						-24,5			
Sirdaryo		-38,1				-49,5	-26,5			
Toshkent									-6,6	
Farg'ona	-18,6						-23,5	-8,0	-5,9	
Xorazm			-29,8					-6,1		
Toshkent sh.										

Hududlarda ayrim iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha respublikadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan eng past ko'rsatkichlar kuzatildi.


Jumladan, Jizzax viloyatida sanoat **36,4** % ga, qurilish **28,2** % ga, tashish va saqlash **49,2** % ga, axborot va aloqa **49,1** % ga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha respublikadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan past bo'ldi.

Samarqand viloyatida savdo **30,5** % ga, tashish va saqlash **49,1** % ga, axborot va aloqa **51,7** % ga, boshqa faoliyat turlari **17,5** % ga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha respublikadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan past bo'ldi.

Farg'ona viloyatida bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati **23,5** % ga, ta'lim **8,0** % ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish **5,9** % ga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha respublikadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan past bo'ldi.

Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2019 yil yanvar- dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1841,2** ming so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan **33,3** % ga oshgan.




Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2019 yil yanvar- dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik ish haqi,
ming so'mda




Ta'lim sohasi bo'yicha qator hududlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Respublikadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqiga nisbatan sezilarli yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahri - **131,1 %**, Toshkent viloyati **103,1 %**, Jizzax viloyati - **101,5 %**, Sirdaryo viloyati - **101,0 %** va Namangan viloyati **100,8 %** hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, to'qqizta hududda ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublika o'rtacha ko'rsatkichidan past ekanligi kuzatildi.

Respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan sezilarli past ko'rsatkichlar Surxondaryo viloyati - **95,4 %**, Xorazm viloyati - **93,9 %**, Farg'ona viloyati - **92,0 %** hamda Qashqadaryo viloyati - **90,5 %** hissasiga to'g'ri kelgan.

O'rtacha oylik ish haqi,
ming so'mda






Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



(2019 yil yanvar- dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda




Sanoat sohasi bo'yicha bir qator hududlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublika o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi.

Respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Navoiy viloyati - **121,3 %**, Toshkent shahri - **115,5 %**, Qoraqalpog'iston Respublikasi - **108,9 %**, Toshkent - **107,6 %** va Andijon - **103,3 %** viloyatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Shu bilan birga, respublikaning to'qqizta hududida ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublika darajasidan past ekanligi kuzatildi.

Ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Surxondaryo viloyati - **70,8 %**, Jizzax viloyati - **63,6 %**, Sirdaryo viloyati - **61,9 %**, Namangan viloyati - **59,4 %** hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda






Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



(2019 yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichlari Toshkent shahri - **119,1 %**, Buxoro viloyati - **111,7 %**, Qoraqalpog'iston Respublikasi - **110,8 %**, Sirdaryo viloyati - **108,9 %** hamda Xorazm viloyati - **106,4 %** hissasiga to'g'ri kelgan.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi respublikaning to'qqizta hududida respublikadagi o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Xususan, ish haqining nisbatan past ko'rsatkichlari Navoiy viloyati - **95,6 %**, Farg'ona viloyati - **94,1 %**, Toshkent viloyati - **93,4 %** hamda Qashqadaryo viloyati - **81,0 %** hissasiga to'g'ri kelgan.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda






Tashish va saqlash sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2019 yil yanvar- dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
sub'ektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik ish haqi,
ming so'mda




Tashish va saqlash sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublikadagi o'rtacha oylik ish haqi, eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahrida - **121,7 %**, nisbatan yuqori ko'rsatkich Buxoro viloyatida - **100,6 %** kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, mamlakatning o'n ikkita hududida tashish va saqlash sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi respublika darajasidan past bo'ldi.

Tashish va saqlash sohasida respublika ko'rsatkichidan sezilarli darajada past o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi Sirdaryo viloyatida - **52,0 %**, Samarqand viloyatida - **50,9 %**, Jizzax viloyatida - **50,8 %**, hamda Andijon viloyatida - **41,5 %** kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqi,
ming so'mda





Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2019 yil yanvar- dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda

Toshkent shahri - 6270,1





Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan ko'rib chiqilganda eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida - **130,7 %** ni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi respublikaning o'n uchta hududida respublika o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichidan past bo'ldi.

Ish haqining sezilarli past ko'rsatkichlari Qashqadaryo viloyati - **76,9 %**, Farg'ona viloyati - **76,5 %**, Surxondaryo viloyati - **75,5 %** hamda Sirdaryo viloyati - **73,5 %** hissasiga to'g'ri keldi.

O'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'atlari


(2019 yil yanvar- dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

Respublika bo'yicha 2019 yil yanvar-dekabr oylarida 2018 yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda **40,1 %** ga, bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatida **37,2 %** ga, ta'lim sohasida **33,3 %** ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda **31,0 %** ga, savdoda **24,7 %** ga, san'at, ko'ngil ochish va dam olishda **22,6 %** ga, sanoatda **21,3 %** ga, qurilishda **20,5 %** ga, axborot va aloqada **19,3 %** ga, tashish va saqlashda **18,4 %** ga o'sganligi kuzatildi.



Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, %)



Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi joriy yilning oktabr oyida **2022,0** ming so'mni, noyabr oyida **2080,1** ming so'mni, dekabr oyida esa **2298,7** ming so'mni tashkil etganligi kuzatildi.



Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, %)



Sanoat sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi joriy yilning oktabr oyida **3539,0** ming so'mni, noyabr oyida **3438,3** ming so'mni, dekabr oyida esa **4498,1** ming so'mni tashkil etganligi kuzatildi.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, %)




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi joriy yilning oktabr oyida **1641,1** ming so'mni, noyabr oyida **1577,1** ming so'mni, dekabr oyida **1696,1** ming so'mni tashkil etdi.



Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, %)




Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi joriy yilning oktabr oyida **5056,3** ming so'mni, noyabr oyida **4744,6** ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, dekabr oyiga kelib **8371,2** ming so'mni tashkil etdi.



Tashish va saqlash sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, %)



Tashish va saqlash sohasi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi joriy yilning oktabr oyida **3209,2** ming so'mni, noyabr oyida **3350,1** ming so'mni, dekabr oyida **3656,6** ming so'mni tashkil etganligi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan o'zgarishi, %



Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Toshkent shahrida **3379,5** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 145,4%), Navoiy viloyatida **2962,2** ming so'mni (127,4%) va Toshkent viloyatida **2555,6** ming so'mni (109,9%) tashkil etgan bo'lsa, Samarqand viloyatida **1909,5** ming so'mni (82,1%), Farg'ona viloyatida **1892,2** ming so'mni (81,4%), Namangan viloyatida **1876,8** ming so'mni (80,7%) va Surxondaryo viloyatida **1874,8** ming so'mni (80,7%) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorni tashkil etgan.



**O'zbekiston Respublikasi bo'yicha yuridik shaxslarda
ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)

	2018 yil yanvar- dekabr	2019 yil yanvar- dekabr	O'sish sur'ati, %
O'zbekiston Respublikasi	1822,7	2324,5	127,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1721,2	2172,8	126,2
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	1685,5	2115,2	125,5
Buxoro	1710,1	2107,1	123,2
Jizzax	1535,9	1932,9	125,8
Qashqadaryo	1615,5	1952,3	120,9
Navoiy	2348,4	2962,2	126,1
Namangan	1429,9	1876,8	131,3
Samarqand	1444,1	1909,5	132,2
Surxondaryo	1470,8	1874,8	127,5
Sirdaryo	1545,8	1971,9	127,6
Toshkent	2071,2	2555,6	123,4
Farg'ona	1499,0	1892,2	126,2
Xorazm	1487,2	1960,9	131,8
Toshkent sh.	2569,6	3379,5	131,5

O'rtacha oylik ish haqini tuzilmaviy usuldan foydalanib aniqlash maqsadida, yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalari (qishloq xo'jaligi korxonalari, mikrofirma va kichik korxonalar, nodavlat notijorat tashkilotlardan tashqari) tomonidan taqdim etiladigan "hisoblangan ish haqi miqdori bo'yicha xodimlar sonining taqsimlanishi to'g'risida"gi 2019 yil noyabr oyi uchun davlat statistika kuzatuvini takomillashtirildi.

2019 yil noyabr oyi uchun hisoblangan ish haqi miqdorlari bo'yicha ishlovchi xodimlarning taqsimlanishi

	Noyabr oyida to'liq ishlagan xodimlar, %	ulardan, ish haqi hisoblangan xodimlar ulushi, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining quyidagi baravarlarida:					
		1 dan 2gacha	2 dan 3gacha	3 dan 4gacha	4 dan 5gacha	5 dan 6gacha	6 va undan yuqori
O'zbekiston Respublikasi	100	36,4	22,2	15,1	9,5	6,1	10,7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	100	38,3	25,4	15,3	8,7	4,8	7,5
<i>viloyatlar:</i>							
Andijon	100	41,2	20,6	13,6	9,0	5,4	10,2
Buxoro	100	36,1	24,3	16,2	10,3	5,6	7,5
Jizzax	100	38,1	23,3	17,3	10,2	4,8	6,3
Qashqadaryo	100	39,7	24,7	14,3	8,1	7,0	6,2
Navoiy	100	24,1	17,1	14,8	11,4	9,0	23,6
Namangan	100	46,2	20,6	13,1	8,5	5,0	6,6
Samarqand	100	42,5	21,8	14,0	9,1	5,2	7,4
Surxondaryo	100	41,6	22,4	15,6	8,9	4,9	6,6
Sirdaryo	100	39,6	23,8	15,7	9,3	4,9	6,7
Toshkent	100	31,8	20,1	15,0	10,6	7,9	14,6
Farg'ona	100	44,5	23,7	13,9	8,0	4,3	5,6
Xorazm	100	38,3	24,9	16,7	9,0	5,1	6,0
Toshkent sh.	100	23,5	21,3	16,8	10,6	7,6	20,2

Kuzatuv natijalarining tahlili, noyabr oyida to'liq ishlagan jami **2413,7 ming** nafar ishlovchi xodimning eng ko'p qismiga, ya'ni **36,4 %** ga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining bir baravaridan ikki baravarigacha, **22,2 %** ga ikki baravaridan uch baravarigacha, **15,1 %** ga uch baravaridan to'rt baravarigacha ish haqi hisoblanganligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 12 iyuldagi "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi PF-5765-son Farmoniga muvofiq, 2019 yilning 1 sentabridan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 634 880 so'mni tashkil etadi.

Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

**Davlat statistika qo'mitasining
Demografiya va mehnat statistikasi
boshqarmasi**

Tel: (71) 230-80-66, 230-81-26